

**O'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI****M.B.Muhtorova***QDPI "Maxsus pedagogika" kafedrası o'qituvchisi***Islomova Zahrohon***Qo'qon DPI Logopediya yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Dunyoda bolalarning ma'naviy-siyosiy mavqei, oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash, yosh avlodning huquqlarini himoya qilish tendensiyalarini belgilash, bolalarning huquqqa oid tushunchalarini rivojlantirish, voyaga yetmaganlar hulqida namoyon bo'luvchi salbiy illatlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanizlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maxsus ta'lim tizimida bola huquqlarini himoya qilishga har bir bolaga tegishli masala bo'lib, uning huquqiy asoslarini mustaxkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'z: *BMT, deklaratsiya, ustav, nogiron, tashkilot, qonun, huquq*

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida e'lon qilingan tamoyillarga muvofiq, jamiyat barcha a'zolarining o'zgan xos bo'lgan qadr-qimmat, teng va ajralmas huquqlarini yer yuzasida erkinlik, adolat va tinchlikni ta'minlashning asosi ekanligi e'tirof etilganini hisobga olib Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining sha'ni va qadr-qimmatiga bo'lgan o'z ishonchlarini tasdiqlanganliklari hamda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilash borasida ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlarini umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro xujjatlarda har bir inson mazkur xujjatlarda ko'rsatib qo'yilgan xuquq hamda erkinliklarga irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki diniy e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy axvoli, tug'ilishi yoki boshqa xolatlar bilan bog'liq belgilarga ko'ra har qanday tafovutdan qat'iy nazar, ega bo'lishi e'lon qilinganligi va rozilik bildirganligini e'tirof etib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasida bolalarga alohida g'amxo'rlik qilish va ularga yordam qilish huquqiga egadirlar, deb e'lon qilingan. Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oilaning hamda tibbiy muhitga va uning barcha a'zolarga, ayniqsa, bolalar o'sib-ulg'ayishlari uchun farovonlikka ega bo'lishlari uchun ham jamiyat doirasidagi majburiyatlarini o'z zimmasiga butkul oladigan bo'lishiga ega bo'lish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta'minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda, bolaning sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamoloti uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o'sishi zarurligini e'tirof etgan xolda bola jamiyatda mustaqil hayotga to'la qonli ravishda tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida e'lon qilingan g'oyalar ruxida, hamda,

tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib, bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924 yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va 1959 yil 20 noyabrdagi BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida koʻzda tutilganligini va Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisida xalqaro paktda (jumladan, 23- va 24-moddalarda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisida xalqaro paktda (jumladan, 10-modda). shuningdek ixtisodiy masalalar xamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shugʻullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Ustavlari va tegishli xujjatlarida eʼtirof etilganligini eʼtiborga olgan xolda Bola huquqlari deklaratsiyasida taʼkidlab, oʻtilganidek, “har bir bola agar u jismoniy va aqliy jihatdan zaif boʻlsa, maxsus ravishda muhofaza va gʻamxoʻrlik, chunonchi, to tugʻilgunga qadar va tugʻilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muxtoj” ekanligini inobatga olib, Ijtimoiy va huquqiy tamoyillar toʻgʻrisidagi deklaratsiyaning bolalarning himoyasi hamda farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda bolalarni boqib olish paytidagi himoyasi va farovonligiga, doir qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Balogʻatga yetmagan bolalarga nisbatan oqilona sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (“Pekin qoidalari”) va Favqulodda xolatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish toʻgʻrisidagi deklaratsiya qoidalariga tayanib, jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda ogʻir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida eʼtiborga muhtoj ekanliklarini eʼtirof etib, bolaning himoya qilinishi va uygʻun ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning anʼanalari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib, xar bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini eʼtirof etgan.

Inson tugʻilishi bilan muayyan huquqlarga ega boʻladi. Ammo, bola oʻz haq-huquqini himoya qila oladigan darajaga yetguniga qadar uning manfaatlarini qonun kuchi bilan himoya qilish zarurati paydo boʻladi. Bola huquqlarining eng sodda koʻrinishi har bir bolaning oʻziga yetkaziladigan ziyondan (zarar) himoya qilinish huquqidan iboratdir. Bola huquqlarining buzilishi inson huquqlari buzilishi boʻlibgina qolmay, bolalarning rivojlanishiga qarshi qaratilgan, jamoatchilik tomonidan tan olinmagan hamda ommaga yetarlicha maʼlum boʻlmagan toʻsiqdir.

Xalq pedagogikasi dalolat berishicha, bola kichikligidan boshlab oʻz haq-huquqlarini bilishga, burch va vazifalarni sidqidildan bajarishga oʻrgatib kelingan. Bolalikdan huquqiy tarbiya berish masalasi Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf xos Hojib, Kaykovus, Amir Temur, Alisher Navoiy, shuningdek, oʻzbek maʼrifatparvarlari Behbudiy, A.Avloniy, S.Aziziy, A.Fitrat asarlarida oʻz ifodasini topgan. Qoraqalpoq shoirlaridan Berdaq Gʻargʻabay oʻgʻli,

Ajiniyoz Qosiboy o'g'li kabilarning asarlarida ham huquqiy tarbiyaga doir fikrlar bayon etilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bolalar farovonligini ta'minlashning mukammal tizimi ishlab chiqilib, bola huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslari yaratildi; bola huquqlarini himoyalashning ma'muriy- tashkiliy tizimi ishlab chiqildi; bolalarning sifatli ta'lim olishi uchun uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi; yoshlar va bolalarga oid qonunlarning ijrosi yuzasidan monitoring yo'lga qo'yildi. Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro va milliy mexanizmlar joriy etildi. O'zbekistonda bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Harakat dasturi doirasida milliy, hududiy, tuman, shahar va mahalla darajasida hamda tarmoqlar bo'yicha boshqaruv tizimi joriy etildi. Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi asosiy xalqaro mexanizmlardan biri BMTning Bola huquqlari qo'mitasi bo'lib, u Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga a'zo davlatlar tomonidan saylanadigan 18 a'zodan iborat. Qo'mita a'zolari o'zlariga berilgan vakolat doirasida faoliyat yuritib, biror bir davlat manfaatlarini himoya qilishlari mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-sonli Qarori bilan ilk bor bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangi mexanizm - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) o'rinbosari - Bola huquqlari bo'yicha vakil institut joriy qilindi. Institut bola huquqlari va qiziqishlarini himoya qiluvchi, mustaqil organ sifatidagi muhim mexanizm hisoblanadi.

O'zbekistonda yashayotgan 34 million aholining 12 milliondan ziyodini bolalar tashkil etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ratifikatsiya qilgan birinchi xalqaro hujjat BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasidir (9.12.1992 y.). Konvensiyaning 1-moddasiga ko'ra "18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi".

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining (2008y.) qabul qilinishi bilan milliy qonunchilikda ilk marotaba "Bola (bolalar)" tushunchasiga ta'rif berildi: "Bola (bolalar) - o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar)dir" Mazkur Qonunga muvofiq, bolalarning huquqlari kafolatlanadi.

Milliy qonunchilikda "bola" tushunchasi bilan birga "voyaga yetmagan" tushunchasi ham qo'llaniladi. "Voyaga yetmagan" o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs bo'lib, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

"Bola huquqlarini himoya qilish" tushunchasi turli vaziyatlarda, turli tashkilotlar tomonidan har xil ma'noda qo'llaniladi. Bola huquqlarini himoya qilishning eng sodda

ko‘rinishi har bir bolaning o‘ziga yetkaziladigan ziyondan himoya qilinish huquqiga aloqador masalalarni atroflicha muhokama qilishdan iboratdir. Bola huquqlarini himoya qilish ularning salomatligini saqlash, rivojlanishlari va farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Xalq pedagogikasi dalolat berishicha, bola kichikligidan boshlab o‘z haq-huquqlarini bilishga, burch va vazifalarni sidqidildan bajarishga o‘rgatib kelingan. Bolalikdan huquqiy tarbiya berish masalasi Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf xos Hojib, Kaykovus, Amir Temur, Alisher Navoiy, shuningdek, o‘zbek ma‘rifatparvarlari Behbudiy, A.Avloniy, S.Aziziy, A.Fitrat asarlarida o‘z ifodasini topgan. Qoraqalpoq shoirlaridan Berdaq G‘arg‘abay o‘g‘li, Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li kabilarning asarlarida ham huquqiy tarbiyaga doir fikrlar bayon etilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bolalar farovonligini ta‘minlashning mukammal tizimi ishlab chiqilib, bola huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslari yaratildi; bola huquqlarini himoyalashning ma‘muriy- tashkiliy tizimi ishlab chiqildi; bolalarning sifatli ta‘lim olishi uchun uzluksiz ta‘lim tizimi yaratildi; yoshlar va bolalarga oid qonunlarning ijrosi yuzasidan monitoring yo‘lga qo‘yildi. Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi xalqaro va milliy mexanizmlar joriy etildi. O‘zbekistonda bolalar farovonligini ta‘minlash bo‘yicha Harakat dasturi doirasida milliy, hududiy, tuman, shahar va mahalla darajasida hamda tarmoqlar bo‘yicha boshqaruv tizimi joriy etildi. Bola huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi asosiy xalqaro mexanizmlardan biri BMTning Bola huquqlari qo‘mitasi bo‘lib, u Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga a‘zo davlatlar tomonidan saylanadigan 18 a‘zodan iborat. Qo‘mita a‘zolari o‘zlariga berilgan vakolat doirasida faoliyat yuritib, biror bir davlat manfaatlarini himoya qilishlari mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4296-sonli Qarori bilan ilk bor bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangi mexanizm - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) o‘rinbosari - Bola huquqlari bo‘yicha vakil institut joriy qilindi. Institut bola huquqlari va qiziqishlarini himoya qiluvchi, mustaqil organ sifatidagi muhim mexanizm hisoblanadi.

O‘zbekistonda yashayotgan 34 million aholining 12 milliondan ziyodini bolalar tashkil etadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ratifikatsiya qilgan birinchi xalqaro hujjat BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasidir (9.12.1992 y.). Konvensiyaning 1-moddasiga ko‘ra “18 yoshga to‘lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qonun bo‘yicha u ertaroq balog‘atga yetmagan bo‘lsa, bola hisoblanadi”.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining (2008y.) qabul qilinishi bilan milliy qonunchilikda ilk marotaba “Bola (bolalar)” tushunchasiga ta‘rif berildi: “Bola (bolalar) - o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga

(voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar)dir" Mazkur Qonunga muvofiq, bolalarning huquqlari kafolatlanadi.

Milliy qonunchilikda "bola" tushunchasi bilan birga "voyaga yetmagan" tushunchasi ham qo'llaniladi. "Voyaga yetmagan" o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs bo'lib, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

"Bola huquqlarini himoya qilish" tushunchasi turli vaziyatlarda, turli tashkilotlar tomonidan har xil ma'noda qo'llaniladi. Bola huquqlarini himoya qilishning eng sodda ko'rinishi har bir bolaning o'ziga yetkaziladigan ziyondan himoya qilinish huquqiga aloqador masalalarni atroflicha muhokama qilishdan iboratdir. Bola huquqlarini himoya qilish ularning salomatligini saqlash, rivojlanishlari va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. AFRUZAXONIM, OLIMJONOVA MOXICHEXRA TOSHKENBOYEVA NAFOSATXON XAMDAMOVA, and MUHTOROVA MAFTUNA. "BO 'LAJAK DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI." Conferencea 12.12 (2023): 577-588.

2. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "METHODS OF TEACHING PRONUNCIATION TO CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." E Conference World. No. 3. 2023.

3. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "METHODS OF TEACHING PRONUNCIATION TO CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." E Conference World. No. 3. 2023.

4. Islomjon, Haydarov, and Tursunova Nilufar. "PRONUNCIATION LESSONS FOR HEARING-IMPAIRED CHILDREN." E Conference World. No. 3. 2023.

5. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA TABIATSHUNOSLIKNI O 'QITISHNING ASOSIY METODI SIFATIDA-TAJRIBA METODI VA AMALIY ISHLAR." HOLDERS OF REASON 1.1 (2023): 36-40.

6. Murodjon, Xovodillayev, D. Abdurazoqova, and Ortiqov Muhtorilla. "9-13 YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH ISHLAR TIZIMI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

7. Azimjon o'g, Oppoxo'jayev Xojixuja. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR THE FORMATION OF SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE IN STUDENTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 369-373.

8. Xovodillayev, M. X., and Nazorova Qizlarxon. "NUTQ NUQSONLARINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH ISHLARINI TASHKIL ETISH." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
9. Xovodillayev, M. X., Qodirov Dilyor, and Xudoyberdiyev Javohir. "OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
10. Xabibullo o'g'li, Xovodillayev Murodjon, and Komilov Otabek Iqboljon o'g'li. "ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." Science Promotion 2.1 (2023): 28-34.
11. Turgunovna, Yuldoshova Dilbar, and Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'. "Pedagogical Mechanism Of Preparing Future Teachers For Professional Competence Formation." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2186-2191.
12. Azimjon o'g', Oppoxo'jayev Xojixuja. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATINING TURLARI VA XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 162-168.
13. Azimjon o'g', Oppoxo'jayev Xojixuja. "BOLALARDAGI NUTQIY RIVOJLANISHNING BUZILISHLARI VA NUTQNING TOLIQ RIVOJLANMAGANLIGI." Confrencea 12.12 (2023): 102-108.
14. Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjon. "TA'LIM JARAYONIDA AUTIZMLI FARZAND TARBIYALAYOTGAN OTA-ONALAR BILAN ISHLASH USULLARI." (2023): 128-132.
15. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 547-552.
16. Azimjon o'g', Oppoxo'jayev Xojixuja. "NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA LOGOPEDIK RITMIKANING AHAMIYATI." Confrencea 12.12 (2023): 169-175.
17. Zarnigor, Kabirova, Erkaboyeva Ozoda, and Raimjonova Gulsanam. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IDROKINI TEKSHIRISH YO'LLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.
18. Azizabonu, Babayeva, and Kabirova Zarnigor. "METHODOLOGY FOR CHECKING THE SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 40-43.
19. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, and Babayeva Azizabonu Hamidjonovna. "USE OF WORD FORMATION MODELS IN DYSARTHIC

CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 61-64.

20. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE AND FORMATION OF FUTURE LOGIC THERAPISTS." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) (2023).

21. Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjon. "INTELEKTIDA NUQSONI BO 'LGAN O 'QUVCHILARNING XULQ-ATVORINING O 'ZIGA XOSLIGI." (2023): 140-145.

22. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "STAGES OF DEVELOPMENT OF TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE." NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal (2023).

23. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "Methods of Pedagogical-Psychological Correction of Future Logic Therapists with Special School Children." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1.10 (2023): 37-40.

24. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "KOGNITIV JARAYONLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 53-60.

25. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISHI QONUNIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 61-69.

26. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI." Science Promotion 1.2 (2023): 18-25.

27. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." Science Promotion 1.1 (2023): 50-57.

28. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Qunduzabibi Yusupova. "MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG 'ULOTLARINI LOYIHALASH." Development and innovations in science 2.5 (2023): 25-31.

29. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Ozoda Samayeva. "INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILINGAN O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI." Молодые ученые 1.2 (2023): 99-102.

30. Nabiye, R. Sh. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING FAOLIYAT XUSUSIYATLARI." Science Promotion 1.2 (2023): 139-144.

31. Makhmudov, Khurshidjon, and Khovodillayev Murodjon. "THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 44-47.

32. Muradkhan, Khovadillayev. "DEVELOPMENT OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 343-347.

33. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODOICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 547-552.